



INNOVATIVE WORLD
Ilmiy tadqiqotlar markazi

INNOVATION TALABALAR AXBOROTNOMASI



 <https://innoworld.net>

 +998335668868



ILMIY JURNAL



ICJ JOURNALS
MASTER LIST

ISSN

INTERNATIONAL
STANDARD
NUMBER
FOR
CODING
PERIODICALS
PUBLICATIONS

doi

zenodo

OpenAIRE

Academic
Resource
Index
ResearchBID

Google Scholar

open access.nl



INNOVATION TALABALAR AXBOROTNOMASI

3-JILD, 3-SON
2026

Jurnal quyidagi xalqaro bazalarda indekslanadi:

Google Scholar  digital object identifier

ResearchGate

zenodo



ADVANCED SCIENCE INDEX



OpenAIRE



Academic
Resource
Index
ResearchBib



Directory of Research Journals Indexing

Ilmiy jurnalning rasmiy sayti:

www.innoworld.net

O'ZBEKISTON-2026

3-JILD, 3-SON | MART - 2026 |

+99833 5668868 | www.innoworld.net | @Anvarbek_PhD

ICHKI ISHLAR ORGANLARI XODIMLARINING JANGOVAR TAYYORGARLIK BO'YICHA MALAKASINI OSHIRISHNING AYRIM JIHATLARI

Djumabayev Jaloliddin Zayniddinovich

IIV Malaka oshirish instituti Xizmat-jangovar va jismoniy tayyorgarlik sikli
boshlig'i, dotsent, podpolkovnik

Annotatsiya. Mazkur maqolada Ichki ishlar organlari faoliyatida o'q otish tayyorgarlikni ahamiyati va muhim o'rin tutishi, shuningdek IIV tizimida o'q-otish tayyorgarligi bo'yicha mavjud kamchiliklar va tavsiyalar yoritib o'tilgan.

Tayanch tushunchalar. xodim, jangovar tayyorgarlik, tahdid, ta'lim, tarbiya, xavfsizlik, o'qotar qurol, o'q otish, jangovar shaylik.

Аннотация. В данной статье освещены значение и важная роль огневой подготовки в деятельности органов внутренних дел, а также существующие недостатки в системе огневой подготовки в системе МВД и приведены соответствующие рекомендации.

Ключевые слова: сотрудник, боевая подготовка, угроза, образование, воспитание, безопасность, огнестрельное оружие, стрельба, боевая готовность.

Abstract. This article highlights the significance and important role of firearms training in the activities of internal affairs bodies, as well as the existing shortcomings in firearms training within the Ministry of Internal Affairs system and provides relevant recommendations.

Keywords: officer, combat training, threat, education, upbringing, security, firearm, shooting, combat readiness.

Ma'lumki ichki ishlar organlarida xodimlarning jangovar tayyorgarligini oshirish yuksak ahamiyat kasb etadi. Xodimlarning jangovar tayyorgarligi, jumladan: o'q otish tayyorgarligi ham bu borada alohida e'tibor qaratilgan. Xodim avvalo, o'q otish qurolidan foydalanish yoki uni qo'llashdan oldin bu boradagi normativ-huquqiy hujjatlarni ham bilishi kerak. Chunonchi, O'zbekiston Respublikasining 2016 yil 16 sentabrdagi "Ichki ishlar organlari to'g'risida"gi qonunning 24-moddasida o'qotar qurolni qo'llash tartibi, 21-moddasida qo'llash shartlari belgilab berilgan. Shu bilan birga mazkur qonunda ichki ishlar organlari qurollantiriladigan o'qotar qurol va uning o'q-dorilari turlarining ro'yxati O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tasdiqlanishi, ushbu ro'yxatga kirmaydigan o'qotar qurol va uning o'q-dorilari bilan ichki ishlar organlarini qurollantirish hamda ulardan foydalanish taqiqlanishi ko'rsatib o'tilgan[1]

Ichki ishlar organlari xodimlari amaliyotda o'qotar qurollarni qo'llash va ulardan foydalanishi shuni ko'rsatmoqdaki, g'ayriqonuniy harakatlarga chek qo'yish ichki ishlar organlari xodimlaridan yuksak axloqiy-irodaviy xislatlar hamda maxsus kasbiy-amaliy va jismoniy tayyorgarlikni, tabel qurolini mukammal egallash hamda murakkab, tez o'zgaruvchan vaziyatda undan ishonch bilan foydalanish mahorati bo'lishini talab etadi. Shuningdek, jangovar qurolni yaxshi egallamaganlik sababli jinoyatlarga chek qo'yish vaqtida nafaqat ichki ishlar

organlari xodimlarining o'zlari, balki maxsus tadbirlar o'tkazilayotgan hududda tasodifan hozir bo'lgan fuqarolar ham jabrlanishlari aniqlangan.

Shu sababli ichki ishlar organlari xodimlarni jangovar tayyorgarligini oshirish jarayonida o'q otish tayyorgarligiga katta ahamiyat qaratiladi. O'q otish tayyorgarligining asosiy vazifalari shaxsiy tarkib o'qotar qurolini mohirlik bilan qo'llash, qisqa vaqt ichida kam o'q-dori sarflagan holda, turli jangovar sharoitlarda dushmani zabt etishga o'rgatish, shuningdek, xodimlarni tabel qurolidan foydalanishda o'ziga ishonch bilan erkin harakatlanishiga tayyorlashdan iboratdir.

Yuqorida ta'kidlanganidek turli jinoyatlarga chek qo'yish vositasi sifatida qurol ishlatish borgan sari ko'p uchramoqda, tabel quroliga oid bilimlarni puxta egallash ichki ishlar organlari xodimlari uchun juda muhim omil hisoblanadi.

Qurolni ishlata bilish – ancha keng tushuncha bo'lib, qurol qo'llashning huquqiy asoslari, uning moddiy qismlari, u bilan muomala qilish chog'idagi xavfsizlik choralari, nishonga aniq otishning nazariy asoslari, o'q otish usullari va qoidalari hamda qurol bilan ishonchli harakatlanish va tezkor vaziyat murakkablashgan sharoitlarda nishonni zabt etish qobiliyatlarini qamrab oladi.

Ichki ishlar organlarida o'q otish tayyorgarligi tizimidagi normativ talablar juda katta ahamiyatga ega, chunki ularda ichki ishlar organlari xodimlari tayyorgarligiga qo'yilgan talab darajasi aniq shaklda berilgan.

Xodimlarning qonunda belgilangan vaziyatlarda tabel qurolini qo'llashi, odatda nizoli vaziyatning murakkab psixologik sharoitlarida yuz beradi. Bu vaziyat unda inson aqliy faoliyatini keskin toraytiradigan va irodasiga salbiy ta'sir etadigan emotsional holat keltirib chiqaradi va bu hol quroldan foydalanish natijalariga jiddiy ta'sir ko'rsatadi. BMTning 1990 yildagi "Huquq-tartibotni saqlash maqsadida mansabdor shaxslarning kuch va o'q otish qurolini qo'llashning asosiy printsiplari"ning 4-moddasida "O'z vazifalarini amalga oshirishda, imkoni boricha, oxirgi zaruriyatda kuch yoki o'q otish qurolini qo'llash vaziyatigacha zo'rlik ishlatmaslik vositalaridan foydalanish" [2] keltirib o'tilgan. Darhaqiqat xodim o'z xizmat faoliyatini olib borish jarayonida imkoniyati darajasida o'q otish qurolidan foydalanmagani ma'qul. Lekin xodim xizmat faoliyatini olib borar ekan, qurolni taktik-texnik xususiyatini, foydalanish qoidalarini bilishi, bu bo'yicha malakasini oshirib turishi muhim hodisadir.

Favqulodda vaziyatlarda tabel qurolini to'g'ri va ishonchli qo'llashga tayyorlik darajasi ichki ishlar organlari xodimlari kasbiy faoliyatining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. U boshqa amaliy faoliyat bilan bir vaqtda, O'zbekiston Respublikasi IIO tizimi bo'lg'usi xodimlarining shaxsini shakllantirish uchun zarur hisoblanadi.

Ichki ishlar organlari xodimlarini favqulodda vaziyatlarda qurolni samarali qo'llashga tayyorlash – murakkab, ziddiyatli va ko'p bosqichli jarayon. Unga ruhiy-jismoniy hamda boshqa xilma-xil omillar – ichki va tashqi, ob'ektiv va sub'ektiv, uzoq va qisqa muddatli holatlar ta'sir ko'rsatadi. Shu bois bu jarayonda turli daraja va tartibdagi qonun hamda qonuniyatlar o'ziga xos ko'rinishda

namoyon bo'ladi. Bu, birinchi navbatda, tabiat va jamiyat rivojlanishining umumiy qonunlari, shuningdek xodim shaxsining shakllanishi, uning bilish va amaliy faoliyat ko'rsatishi qonuniyatlaridir.

O'q otish tayyorgarligi O'zbekiston Respublikasi IIV malaka oshirish instituti tinglovchilari harbiy-xizmat tayyorgarligining tarkibiy qismi hisoblanadi. O'q otish tayyorgarligining asosiy vazifalari shaxsiy tarkibga o'q otish qurolini mohirlik bilan qo'llash va uning jangovar imkoniyatlaridan eng kam vaqt va o'q-dori sarflagan holda, turli jangovar sharoitda dushmanni mahv etish uchun foydalanishga o'rgatish, ta'lim oluvchilarda o'z quroliga ishonch hosil qilish, jangovar vazifalarni bajarishda faollik va mustaqillikni tarbiyalashdan iborat[4].

O'q otish tayyorgarligi bo'yicha ta'lim tizimiga hozirgi qarashlar oddiysidan tortib murakkabigacha bo'lgan turli assotsiatsiyalar tizimini yaratish orqali zarur bilimlar to'plash, ta'lim oluvchilarda muayyan xislatlarni tarbiyalash, o'qotar qurol bo'yicha tegishli bilim va ko'nikmalarni shakllantirishdir.

IIV malaka oshirish instituti tinglovchilari o'q otish bo'yicha bilim, uquv va ko'nikmalarga o'quv xonalardagi mashg'ulotlar qurol bilan mashq qilish, jangovar o'q otishlar va taktik mashqlarda, qurol va jangovar texnikaga xizmat ko'rsatishda, mustaqil tayyorgarlik vaqtlarida, merganlar musobaqalarida va ta'limning boshqa predmetlari bo'yicha mashg'ulotlardagi ish jarayonida ega bo'ladilar hamda ularni takomillashtirib boradilar.

O'quv xonalaridagi mashg'ulotlarda, odatda, qurol-yarog', o'q-dorilar, nishonga olish va kuzatish uskunalarining vazifasi, jangovar xususiyatlari va tuzilishi, qurolga xizmat ko'rsatish va uni saqlash qoidalari, o'q otish asoslari va qoidalari o'rganiladi. Keyinchalik ta'lim oluvchilar ushbu masalalarga oid bilim, mahorat va ko'nikmalarini qurol bo'yicha mashqlar, o'q otish va ta'limning boshqa shakllarida takomillashtiradilar.

Qurol qo'llash bo'yicha mashqlarda tinglovchilarning turli jangovar vazifalarni muvaffaqiyatli bajarish uchun zarur qurol bilan harakatlanish (o'q otish usullari), nishonni kuzatib razvedka qilish, ulargacha bo'lgan masofani aniqlash va nishonni ko'rsatish, o'q otish qoidalarini amalda qo'llash, qo'l granatalarini uloqtirish va bo'linmalarining o'q otishini boshqarish ko'nikmalari hosil qilinadi hamda takomillashtiriladi.

Amaliy o'q otish mashqlarida rahbarlarning bo'linmalarni boshqarish ko'nikmalari, shaxsiy tarkib esa jangovar holatga juda yaqin sharoitda bo'linmalar tarkibida harakatlanayotgan turli jangovar vazifalarni bajarish ko'nikmalarini takomillashtiradilar, ayni vaqtda bo'linmalar harakatlarining uyg'unligi tekshiriladi.

O'q otish musobaqalari o'tkazilayotganida bo'linmalar shaxsiy tarkibining o'q otish mahorati takomillashtiriladi, keyinchalik oqilona foydalanish maqsadida eng yaxshi merganlar tanlab olinadi.

Ichki ishlar vazirligi malaka oshirish instituti tinglovchilarining o'q otish tayyorgarligini to'g'ri tashkil etish faoliyatni izchilligini ta'minlaydi. Bu esa IIV

malaka oshirish instituti jangovar tayyorgarligi sikli profenssor-o‘qituvchilari tomonidan o‘q otish tayyorgarligining hozirgi darajasi ularning xizmat faoliyatini amalga oshirishlarida real vaziyat sharoitida qurolni qo‘llashdagi potensial harakat imkoniyatlarini jadalroq va to‘liqlar ochib berishga imkon beradigan yangi, yanada samarali vosita va usullarni ishlab chiqishni talab qilmoqda” [3].

Ta’kidlash kerakki, tinglovchilarining xizmat, jangovar, jismoniy va axloqiy-psixologik tayyorgarlik darslari va mashg‘ulotlarini o‘tkazishda yechimini kutayotgan bir qator muammolar mavjud.

Birinchidan, o‘q otish tayyorgarligi yo‘nalishi bo‘yicha pistoletdan va avtomatdan amaliy o‘q otish mashqlarini o‘tkazish uchun (pistoletdan 14 ta mashq, avtomatdan 5 ta mashq) o‘q otish tirlari va poligoni xodimlarni mashq shartlarini bajarishi uchun mos kelmaydi.

Ikkinchidan, malaka oshirish institutida jangovar tayyorgarlik siklida amaliy mashg‘ulotlarga yordamchi o‘qituvchi jalb etishda ham qiyinchiliklarga duch kelinmoqda. Taklif sifatida o‘q-dori olib topshiruvchi, o‘quv-metodik xonalari, otish maydonining ishlashini nazorat qiluvchi hamda amaliy mashg‘ulotlarda o‘qituvchilarga “instruktor-metodist” lavozimini kiritish maqsadga muvofiq deb o‘ylayman.

Uchinchidan, eng zamonaviy imitatsiya qiluvchi qurol, lazerli, panoramali kompyuter o‘q otish trenajyorida amaliy mashg‘ulotlarni sifatli va samarali o‘tkazish mumkin. Ammo mazkur trenajyor hozirgi kunda barcha ichki ishlar organlari boshqarmalarida mavjud emas. Taklif lazerli, panoramali kompyuter o‘q otish trenajyorni joriy etish.

Xulosa o‘rnida ta’kidlash joizki, jahonda mafkuraviy kurashlar keskin tus olayotgan, axborot makonida turli xavf-xatar va tahdidlar tobora ortib borayotgan hozirgi sharoitda barchamiz doimiy ogoh va sezgir, faol fuqarolik pozitsiyasiga ega bo‘lishimiz, buning uchun xodimlar doimo o‘z ustida ishlashi, jangovar tayyorgarligini oshirib borishi zarur. Albatta yuqorida keltirib o‘tilgan muammo va takliflar inobatga olinishi tizim xodimlarini yuqori darajada jangovar va jismoniy shayligini ta’minlab berishga xizmat qiladi.

Shuningdek, sohaga ilg‘or tajriba va ish usullarini, innovatsion-raqamli texnologiyalarni keng joriy etish, xodimlarning intellektual va kasbiy salohiyati, ma’naviy-ma’rifiy saviyasi, jismoniy va ruhiy tayyorgarligini oshirish, ularning mashaqqatli va fidokorona mehnatini munosib qadrlash bo‘yicha zarur chora-tadbirlarni belgilash talab etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasining 2016 yil 16 sentabrdagi “Ichki ishlar organlari to‘g‘risida”gi qonuni //https://nrm.uz/contentf?doc=474393
2. Inson huquqlari umumiy nazariyasi: IIV tizimidagi ta’lim muassasalari tinglovchi va kursantlari, shuningdek huquqni muhofaza etuvchi organlar xodimlari uchun darslik. – T., 2012. – B. 131.
3. Harbiy xizmat tayyorgarligi. T. 1. O‘q otish: Darslik / A. A. Kochkarov, U. Sh. Yuldashev, M. M. Alimov va boshq.; Mas’ul muharrir polkovnik I.X. Maxmudov. – T.: O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2020. – B. 484.
4. Maxmudov I.X. va boshq. Harbiy xizmat tayyorgarligi. T. 1. O‘q otish: Darslik. – T., 2020.